

BINO VA INSHOOTLAR ULARGA QO'YILGAN TALABLAR

Muradov Sirojiddin Husan o'g'li

Karimov Bohodir O'Ktam o'g'li

Madinabonu Asatilla Qizi Siddiqova

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

“Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi” kafedrası o'qituvchilari.

Qarshi, O'zbekistan.

sirojiddinmuradov0@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14029037>

Annotatsiya. Ushbu maqolada, bino va inshootlar xavfsizligi, mamuriy binolarning tuzilishi va ularga qo'yilgan xavfsizlik talablari haqida mualliflarning nazariy, umumlashtiruvchi fikrlari keltirilgan. Maqola mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi yunalishlari talablari, mehnat muhofazasi va xavfsizlik mutaxassislari hamda keng izlanuvchilar uchun muljallangan.

Kalit so'zlar va iboralar: “bino. Inshoot, QMQ.SHNK, bardoshlilik, zilzilabardosh binolar”.

REQUIREMENTS FOR BUILDINGS AND STRUCTURES

Abstract. In this article, the authors' theoretical and general opinions about the security of buildings and structures, the structure of administrative buildings and the security requirements imposed on them are presented. The article is intended for the requirements of labor protection and technical safety directions, labor protection and safety specialists, and general readers.

Key words and phrases: "building. Structure, QMQ.SHNK, tolerance, earthquake-resistant buildings".

ТРЕБОВАНИЯ К ЗДАНИЯМ И СООРУЖЕНИЯМ

Аннотация. В статье представлены теоретические и обобщающие мнения авторов о безопасности зданий и сооружений, устройстве административных зданий и требованиях безопасности, предъявляемых к ним. Статья предназначена для требований направлений охраны труда и технической безопасности, специалистов по охране труда и технике безопасности, а также широкого круга читателей.

Ключевые слова и фразы: «здание. Конструкция, QMQ.SHNK, устойчивость, сейсмостойкие здания».

Kirish. Mazkur loyihalash ilmiy muassasalar va loyiha-konstruktorlik, bank, moliya-kredit, huquqshunoslik, soliq, hokimiyat, ma'muriy-xo'jalik boshqarish muassasalari binolari va imoratlariga (maxsus laboratoriya va eksperimental ishlab-chiqarish korpuslaridan tashqari) bo'lgan talabni belgilaydi.

Ma'muriy binolarni loyihalashtirilganda O'zbekiston Respublikasi hududidagi harakatdagi KMK 2.08.02 "Jamoat binolari va inshootlari" va boshqa qurilish normalariga bo'lgan talabga amal qilinishi lozim. Nogironlarni kursi-aravachada binoga bimalol kirishi KMK 2.07.02 ga muvofiq ta'minlanadi.

Ishlab-chiqarish korxonalarini ma'muriy-maishiy binolari KMK 2.09.04 ga muvofiq loyihalashtirilishi lozim.

Ma'muriy-boshqarish, idora va ofis xonalarini turar-joy binolari hajmida loyihalashtirilganda KMK 2.08.01 ni talabi hisobga olinishi kerak.

Mazkur normalar Prezident apparati, Vazirlar mahkamasi, Oliy Majlis, Mudofaa, ichki ishlar, chet el ishlari vazirliklari, elchixonalar, xavfsizlik organi qo'mitalari va jamoat tartibini saqlash qo'riqchilari, bojxona, arxivlar, telekommunikasion aloqalar operatorlari binosi, hamda ma'muriy-idora xonolari va ko'chma binolarni loyihalashtirishga tarqatilmaydi.

Ushbu loyihalashtirish normalariga majburiyat talablari qismi bo'yicha, binolarni mulkchilik shakli, qurilishni moliyalashtirish turi yoki ijara uchun loyihalashtirilganda amal qilinishi kerak.

Mazkur loyihalashtirish normalari boshqa amaldagi normativ hujjatlari bilan birgalikda foydalanilishi kerak. KMK 2.08.04ni matni bo'yicha normativga havola keyingisida keltirilgan.

Keyingi o'rinda yuqorida ko'rsatilgan muassasalar binosi ma'muriy deb nomlanadi.

Normativga aloqadalar.

KMK 2.08.02-96 "Jamoat binolari va inshootlari"

ShNK 2.07.01-83 "Shaharsozlik, shahar hududlari va qishloq aholi punktlarini qurish va rejalashtirishni rivojlantirishi.

KMK 2.08.01-05 "Turar-joy binolari"

KMK 2.07.02-96 "Aholini kamharakatli guruhi va nogironlarni hayot faoliyati chorasini loyihalashtirish"

KMK 2.01.01-94 "Loyihalashtirish uchun iqlimiy va fizik-geologik ma'lumotlar.

KMK 2.01.03-96 "Zilzilali hududlarda kurashish" KMK 2.01.05-98 "Tabiiy yoritish".

KMK 2.01.18-2000 "Binolar va inshootlarni isitish, ventilyasiyalash va havoni kondisionerlashga energiya sarfi normativlari"

KMK 2.01.17-95 "fuqorolar mudofaasi va favqulotda vaziyatlar, injener-texnik tadbirlar"

KMK 2.09.04-98 "Korxonalarining ma'muriy va maishiy binolari"

SniP 2.09.02-85 "Yong'inga qarshi normalar"

Ma'muriy binolarga bo'lgan umumiy talablar

Ma'muriy binolar sig'imi boshqarma va bo'limlarni xodimlar shtati miqdoridan kelib chiqib aniqlanadi; bunda hisob sig'imiga quyidagilar kiritilmaydi: xizmat xodimlari (oshxona va medpunkt ishchilari, shoferlar) va ekspluatasiya ishchilari, (farroshlar, vaxtyorlar, dvorniklar, elektromontyorlar, mexaniklar va boshqalar) Izoh:

Ma'muriy binolar sig'imi loyihalashtirish topshirig'i orqali belgilanadi; qishloq ma'muriy binolari uchun shtatsiz xodimlarni hisobga olishga ruxsat etiladi.

Shahar va qishloq aholi yashaydigan punktlardagi ma'muriy binolarni jipslashtirish amaldagi qonun va normativ hujjatlar talabiga, bosh plan (qurilish loyihasi yoki PDP), loyihalashtirish uchun arxitekturaplanlashtirish topshirig'iga mos kelishi lozim.

Yer uchastkalarini o'lchami va ularni tuzilishi, binolar va avtostoyanka yo'lkalarini qo'shib hisoblaganda ShNK 2.07.01 asosida ko'rib chiqilishi kerak.

Ma'muriy binolar qavati soni bosh plan (yoki PDP) loyihalashtirish topshirig'i va amaldagi normalar (KMK 2.08.02; KMK 2.01.03) asosida belgilanadi. Amaldagi loyihalashtirish normalari 16 qavatdan yuqori bo'lmagan binolarga tegishlidir, 16 qavatdan yuqori bo'lgan binolarga maxsus texnik-iqtisodiy asoslar va texnik talablar ishlab chiqilishi kerak.

Izoh: Binoning balandligi yuqori qavat balandligi (texnik qavatdan tashqari) bilan o'lchanadi. qavatlar balandligini joylashuvi o't o'chirish mashinalarini o'tish darajasi va tashqi devorlarni ochiladigan eshik (deraza) o'rinlarini pastki chegarasini farqlanuvchi sathi bilan belgilanadi.

Ma'muriy binolarni hajm-planlashtirish tarkibi va qavatini belgilashda KMK- 2.07.02 ga muvofiq kursi-aravachali nogironlarga qulaylik hisobga olinishi kerak.

Liftlar va ko'targich moslamalari KMK 2.08.02ga muvofiq hisobga olinishi kerak. Kursi-aravachali nogironlar uchun liftlar yoki maxsus ko'targich moslamalari loyihalashtirish topshirig'ida ko'rsatiladi.

Binolarni hajm-planlashtirish va injener-texnik yechimlari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- Odamlarni qutqarish tadbirlari, binodan tutashgan maydonga odamlarni tezda evakuasiya etish;

• O't o'chiruvchilarni yaqin kelishi va o't o'chog'iga o'tni o'chirish qurollarini yetkazib berish; Moddiy zararni kamaytirish.

Balandligi 10 qavat va baland binolarda bitta yo'lovchi tashuvchi lift o't o'chiruvchi bo'linmalarni tashish uchun hisobga olinishi kerak.

Fuqorolarni himoyalash injener-texnik tadbirlar KMK 2.01.17 va muassaviy normativ hujjatlariga muvofiq loyihalashtirish topshirig'ida ko'rsatilishi kerak.

Atriumli binolarni KMK 2.08.02 talablariga muvofiq loyihalashtirish kerak.

Binoning yer osti qismi xonalari va yo'laklari atrium bilan faqat yong'in paytida havo tirgaki bilan ta'minlangan holda tambur-shlyuzi orqali bog'lanadi.

Loyihalash yechimlari binolarni texnik xizmat talabini ta'mirlash va uskuna elementlarini almashtirishni hisobga olishi kerak. Iyulkalarini mahkamlash yuqori qavatli binolar uchun loyihalashtirish topshirig'ida ko'rsatiladi.

Yong'in postlari xonalarini maydoni birinchi yoki sokol qavatida tabiiy yoriqlik bilan ta'minlangan holda nazarga olinishi kerak.

Binolardagi yong'in postlarini hisob sig'imi $10-15\text{m}^2$ (maydon loyihalashtirish topshirig'i bo'yicha belgilanadi) xonalar nazarga olinadi.

Ma'muriy binolarni xonalari balandligi KMK 2.08.02 ni talablariga mos kelishi kerak; ma'muriy-idora xonalarining balandligi turar-joy binolari hajmida joylanib KMK 2.08.01 bo'yicha qabul qilinadi. Yo'laklar va xonalarni sof (yorug'da) balandligi 2.4m dan kam bo'lmasligi kerak; Turar joy binolari hajmida joylashuvida ayrim hollarda balandligi 2.2m bo'lishiga ruxsat etiladi.

Ma'muriy binodan evakuasiya yo'llarini tashkil etishi va konferens-zallar, majlislar zali va auditoriyalar KMK 2.08.02 talabiga mos kelishi lozim.

Evakuasiya va yo'laklarni yo'li eni KMK 2.08.02 talablariga mos kelishi kerak.

Yo'laklarni eni 1,5m dan kam bo'lmasligi kerak; turar-joy hajmidagi yo'laklarni uzunligi 10m gacha bo'lganda 1,2m enlikga ruxsat etiladi, kursi-aravachadagi nogironlarni kira olish zonasidagi yo'laklar eni 1,8m dan kam bo'lishi kerak emas; ayrim uchastkalarda 1,6m ga ruxsat etiladi. Kuluvarlar va keluvchilar uchun kutish joylari yo'lak rekreasiyalar bilan birgalikda joylashuvini eni 2,4m dan kam bo'lmasligi kerak.

Uzunligi 60m dan ko'proq yo'laklarni bir-biridan va yo'lakni yon tomonidan 60 m dan ko'p bo'lmagan masofada joylanishi yong'inga qarshi 2 tur pardevorlar va 3-tur o'zi yopiluvchi yong'inga qarshi eshiklar bilan ajratilishi kerak.

Yo'lovchi liftlaridan chiqishlarni xoll liftlari tomonidan loyihalash zarur, shu bilan birga vestibul yoki boshqa vazifalarga mo'ljallangan xollar orqali, agar xoll liftlari ular maydoniga kirgan bo'lsa. Xoll liftlariga omborga shu bilan birga yonuvchi moddalar va materiallarni saqlash uchun mo'ljallangan xonalardan chiqish moslamalariga ruxsat etilmaydi. Lift xollarini eni KMK 2.08.02 talabiga mos kelishi kerak.

Avtomatik o't o'chirish va yong'in signalizasiyalari amaldagi normalarga muvofiq ko'rilishi kerak.

Zallardan evakuasion chiqish eshiklari, yo'laklarda va zina kataklari ustida yoritilgan chiqish "chiqish" ko'rsatkichi o'rnatilgan bo'lishi kerak; ko'rsatkichlarni elektr bilan ta'minlash 1-daraja ishonchligi bo'yicha bajarilishi lozim.

Umum yo'laklariga olib boruvchi, zina kataklari eshigi, lift xollarini va tombur-shlyuzlarni eshiklari o'zi yopilishi va zichlanib qiya yopilishi uchun moslamalarga ega bo'lishi ularni kalitsiz ochish uchun halaqit beruvchi qulflarni bo'lishi kerak emas.

Tabiiy va suniy yoritish, tabiiy shamollatish va mikroklimat parametrlari, xonalarni quyosh nuridan himoyalash amaldagi loyihalashtirish normalariga mos kelishi kerak.

Ma'muriy bino xonalarini sokol va yerto'la qavatlarida joylashtirish KMK 2.08.02 talabiga muvofiq qabul etiladi, shu bilan birga: vestibullarga bevosita tashqariga chiqish qurilmalari konferens zallar va kularlar, garderoob xonalar, sanitar uzellari, jismoniy sog'lomlashtirish mashg'ulotlari va massaj xonalari uchun ovqatlanish xonalari, bufetlar, oshxonalar, maket tayyorlovchi ustaxonalar, uskunalarni ta'mirlash, ayrim laboratoriya va texnologik sharoitlari bo'yicha omborxonalar (yonuvchi suyuqliklar va yengil alanga oluvchi modda saqlanuvchilardan tashqari), bevosita tashqariga chiquvchi quruq issiqlik hammomlari (saunalar), texnik xonalar.

Xonalarni yoritishga faqat ikkinchi yorug'likga ruxsat etiladi, ularni tabiiy yoritishsiz loyihalashtirishga ruxsat etiladi. Xonalarni derazasini, havoni kondisionerlash tizimi bilan jihozlashda, ichki hovli tomonidan yoruqlik o'tkazuvchi qoplamaga yo'naltirishga ruxsat etiladi.

Ikki tomon yo'nalishiga ega bo'lgan xonalarda, shu bilan birga ichki hovli va ko'chaga qaratilgan derazadan o't o'chiruvchilarni avtozona va ko'cha tomonga o'rnatilgan avtoko'targichlardan chiqishida yong'inni avtomatlashtirilgan o'chirishni ko'rsatmaslikka ruxsat etiladi.

Ma'muriy binolarni (turar-joy binolari hajmidagi ichki qurilgan xonalardan boshqa) birinchi va sokol qavatlarida saunalarni joylashtirishga ruxsat etiladi. Saunalarni joylashtirilganda KMK 2.08.02 talablariga amal qilinishi kerak. Saunalar sig'imi 100 kishidan ortiq zal xilidagi xonalar bilan qo'shilgan holda joylashishi kerak emas.

Tavakkalchilik va jinoiy ko'rinishlarni kamaytirish tadbirlari, muassaviy hujjatlar talabiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi MHX yoki IIV organlari bilan kelishilgan loyihalashtirish topshirig'ida ko'zda tutiladi.

Izoh: Ko'rsatilgan tadbirlarda nazorat qilish punktlari va texnik nazorat vositalariga kirish qo'llanilishini, portlashdan saqlanish to'siq konstruksiyalari va maxsus to'siqlar, derazadagi himoya vositalari maxsus texnik jihozlangan ayrim xonalarni, shu bilan birga binolarni chordoq va yer to'lalarini qo'llanilishini kiritish mumkin.

Maxsus xonalarda saqlanuvchi xabarlar va qimmatbaho narsalarni tajovuzlikdan saqlash maqsadida, loyihalashtirish topshirig'ida texnik vositalarga kirishni nazorat etish, maxsus to'siq konstruksiyalari va eshiklar nazarga olinishi kerak.

Yerto'la sokol va birinchi qavat xonalari derazalariga, hamda qavatlarni boshqa qavatlarida, ularga tutash binolaridan kirish mumkin bo'lgan derazalarga begonalarni kirishidan himoya etish uchun panjaralar o'rnatish ko'zda tutiladi; Bunda yong'in paytida odamlarni to'siqsiz evakuasiya etilishi ta'minlangan bo'lishi kerak. Ventilyasiya teshiklari va quvurlarni o'tkazish teshiklar kemiruvchilarni kirishidan himoyalangan bo'lishi kerak.

Binoning hajm-planlashtirish yechimini tanlash va binoning fasad devorlarini tashqi oynalashtirish tanlovi KMK 2.01.18 bo'yicha energiyadan foydalanishni kamaytirish talabiga mos kelishi kerak.

Binoning fasadlarini oynalashtirganda piyodalarni iloji boricha oyna (soyabonlar, to'siqlar va boshqalar) tushib ketishdan himoyalashni nazarga olish kerak.

Sokol va yerto'la qavatlarida garajlarni amaldagi loyihalashtirish normalariga muvofiq joylashtirishga ruxsat etiladi.

Fuqorolarni himoya etish organlari, KMK 2.01.17ga muvofiq odamlarni 12 soatgacha vaqtinchalik yashirinishi uchun yerto'la xonalardan foydalanishi ko'zda tutilgan.

Vestibyl va navbatchilar (qoravullar) xonasidan yer to'laga kirish, hududga kirish va chiqish nazorati imkoniyati ta'minlangan bo'lishi kerak.

Bino uchastkasini to'siqlar bilan o'rash zaruriyati loyihalashtirish topshirig'i orqali belgilanadi (to'siqlar turi, uni balandligi)

Maydonlarni tashkil etish bino atrofidi aylanib o'tish yo'llarini bo'lishi, uchastkani ko'kalamzorlashtirish va boshqa maxsus talablar loyihalashtirish topshirig'i orqali belgilanadi.

Binolarni loihalashni ishlab chiqazganda byudjet sohasiga tegishli qurilishni va foydalanishni moliyalashtirishda material va energetik resurslarni maksimum iqtisod etish talabi hisobga olinishi kerak.

Ma'muriy bino xonalariga talablar

Ma'muriy binolarning xonalari quyidagi asosiy guruhlarga bo'linadi.

1. Ishchi, informasiya va ilmiy-texnikaga oid vazifalar.

- Ishchi xonalarni tarkibiy bo'linishi: ishchi xonalar (yoki ishchi zallar), kafedralar, qabulxona va rahbar xonasi, banklarni operatsiya va kassa zallari;

- Kutubxonalar, arxivlar, loyiha kabinetlari.

2; Yordamchi xonalarni vazifalari.

- Maishiy-sanitar: hojatxona, yuvinish xonasi, shaxsiy gigiyena xonasi, dushxona;

- Xizmat xonalari: medpunkt, sog'lomlashtirish xonalari, oshxona, bufet;

- Ko'paytirish ishlarini ishlab chiqarish, ustaxonalar, muqovachilar, maket, laboratoriya uchun xonalar.

- Vestibyl orqali kirish: vestibyl, garderob, propusk bo'yicha kirish byurosi, o't o'chirish posti, qorovulxona va boshqalar;

- Binoning xo'jalik xizmati xonalari: omborxona, ta'mirlash ustaxonalari;

- Binoning texnik ustaxonalari: ventkameralar, elektroshitlar va boshqalar.

Izoh: Maxsus laboratoriya va eksperimental ishlab-chiqarishga mo'ljallangan ishlab-chiqarish va sanoat korxonalarini xonalari texnologik va qurilish normalarini hisobga olgan holda loyihalashtiriladi.

Xonalarni tarkibi va ularni maydoni, xonalararo aloqa vazifasi, ushbu va texnologik muassaviy loyihalashtirish normalariga muvofiq loyihalashtirish topshirig'i bo'yicha belgilanadi.

Byudjet sohasiga bog'liq binolarni moliyalashtirish uchun, xonalarni tarkibi va maydonini tanlaganda maydonlarni (minimal darajadagi) rasional normalarini mo'ljallash lozim.

Ishchi va informasion-texnik vazifasiga oid xonalar.

Har-xil vazifadagi ma'muriy binolardagi ishchi xonalar tarkibiy bo'linmalar (bo'limlar) uchun xodimlarni kompyuter yoki maxsus chizma stoli bilan jihozlangan ish joyi $6m^2$ hisobidan belgilanishi zarur; oddiy ish stollaridan foydalanilganda bir ishchi joyini maydoni $4m^2$ bo'lishi ruxsat etiladi (KMK 2.08.02 ga muvofiq) ishchi zallarini, ishchi joylarini ajratib o'rnatilgan va ko'chma seksiyali uskunalab loyihalashtirishga ruxsat etiladi; xonalarni chuqurligi (eni) tabiiy yoritish va shamollatish talabini hisobga olish aniqlanadi.

Yetakchi mutaxassislar-bo'linmalar rahbari uchun bir ishchi joy $9m^2$ maydon hisobidan mo'ljallanadi; qabulga keluvchilarni hisobi bilan $12m^2$ dan kam bo'lmasligi kerak. Kabinetlar maydoni loyihalashtirish topshirig'i bo'yicha jadvaldagi ko'rsatkichlarni hisobga olish belgilanadi.

Izoh: qayta o'lchamli maxsus uskunali ishchi joylarni maydoni loyihalashtirish topshirig'i bilan belgilanadi. Ma'muriy bino tarkibida joylashgan laboratoriyalar uchun xona maydoni joylashtiriladigan uskunalar hisobi bilan 6-12 m² etib belgilanadi.

Ishchi xonalarda, xizmat hujjatlari uchun o'rnatilgan shkaflar konkret sharoit bo'yicha belgilanadi (taxminan 0,1m² hisobidan bitta xodim uchun)

Vazirliklar, qo'mitalar, hokimiyatlar, xo'jalik boshqaruvi tashkilotlari rahbarlarining kabinetlari 1 jadval ko'rsatkichlari hisobi bilan ko'rib chiqish tavsiya etiladi.

Davlat boshqaruvi tashkilotlarining ishchi xonalari va kabinetlari maydonini hisob ko'rsatkichlari

Tartib №	Lavozim nomlari	Tahminiy maydoni m ²
1	2	3
1	Viloyat shaharlarining va qishloq tumanlari mamuriyatlarining hokimiyatlari.	
1	Hokim kabineti	36-50
2	Hokimning birinchi o'rinbosari	30-36
3	O'rinbosar va tenglashtirilgan lavozimlar	30
2	Vazirliklar va muassasalarni, viloyat tashkilotlari.	
1	Vazir, qo'mita raisi kabineti.	36-50
2	Vazir va rais o'rinbosarlari kabineti.	30-36
3	Boshqarma boshlig'i kabineti.	24-30
4	Bo'lim boshlig'i kabineti	18-20
3	Vazirliklar va muassasalarni tuman va shahar bo'linmalari	
1	Boshliq kabineti. Boshliq o'rinbosari kabineti	18-24 14-18

Izoh:

1.Xonalar maydoni konkret sharoitlar bo'yicha loyihalashtirish topshirig'iga binoan belgilanadi.

2. Dam olish xonalari sanuzel bilan yuqori rahbarlarini kabinetlarida loyihalashtirish topshirig'iga binoan ko'zda tutiladi.

Rahbarlar kabinetida qabulxonalar 1 kabinetga 12m² ikki kabinetga 18m²dan kam bo'lmagan va odam bo'yicha 36m²dan ko'p bo'lmasligi ko'zda tutilgan.

Direksiya, boshqaruv, kengash va boshqalar uchun kasbdoshlar kengashi zallari maydoni, zallarni stollar bilan jihozlangan bir o'rin hisobi 2m² va zallar, qator o'rindiqlar bilan

jihozlanganda bir o'rin uchun 0,8-1,0m² hisobi ko'zda tutilgan. Kengash zalidagi o'rinlar soni loyihalashtirish topshirig'i bo'yicha qabul qilinadi. Binolarda kengash zali sig'imi shtat xodimlari soni 150-250 bo'lganda 50-60 o'rin bo'lishi tavsiya etiladi.

Sig'imi 250 xodim va yuqori yirik ma'muriy binolar uchun konfirensiya zallari va estradali tomosha zallari va prezidium xonalari loyihalashtirish topshirig'ida ko'rsatiladi. Konferensiya zallarini, estradali tomosha zallarini KMK 2.08.02 orqali amalga oshiriladi.

Ilmiy tekshirish institutlarining binosidagi konferens zallar, ilmiy kengashning majlis zallari sig'imi, aspirantlarni mashg'uloti uchun auditoriya va lingafon kabinetlarni soni va sig'imi loyihalashtirish topshirig'i orqali belgilanadi.

Ilova:1 Konfirensiya zallarining sig'imi 60-80% shtat xodimlari hisobida ko'zda tutilgan konferensiya zallarida preparator xona (12-15m²) va tovush apparat xona (12-15m²) ko'zda tutilgan.

2 Aspirantlarni o'quv mashg'ulotlari uchun o'quv auditoriyalari va lingafon kabinetlari mo'ljallangan; o'quv xonalarini maydoni 10-15 kishiga 35-40m²; 20-25 kishiga 50m² mo'ljallangan.

Arxiv xonasining maydoni saqlanadigan hujjatlarni hajmiga qarab loyihalashtirish topshirig'iga binoan 2,5m² hisobidan 1 ming dona saqlash hujjati bo'yicha qabul qilinadi. Sig'imi 50-100 kishilik xodimlari uchun 10-12m², 100-200 gacha 15-18m², 200-400 gacha 20-25m² arxiv maydoni qabul qilinishini tavsiya etiladi. Arxiv xonasi maydonida qoida bo'yicha arxiv xodimlarini ish o'rni (5-6m²) va keluvchilar uchun ish o'rni (3m²)

Ilmiy tekshirish institutlari binolarida ilmiy-texnik xabarlari bo'limlari va ilmiy arxiv xonalarining maydoni bir shtat xodimiga 0,2m² hisobidan qabul qilish tavsiya etiladi.

Ilmiy-texnik xabarlari bo'limi tarkibida xabar hujjatlarini referatlash uchun 6m² hisobidan bo'lim xodimlariga va manbaalar bilan ishlash uchun keluvchilarni bir o'rniga 3-6m² maydon ko'zda tutilgan.

Ma'muriy kartoteka xonasining maydoni 1000 kattalik kartochkasi bo'yicha 0,04m² hisobidan qabul qilinadi. Hujjatlarni saqlash maydoni 1000 dona saqlash bo'yicha 2,6m² hisobidan qabul qilinadi.

Xulosa. Loyihalash tashkilotlaridagi loyiha kabinetlari va texnik arxivlar maydoni loyiha topshirig'iga asosan saqlanadigan hujjatlarni real hajmidan belgilanadi; taxminan binodagi 200-300 xodimga 36-40m² 2ta xona 100-150 xodimga 30-40m² maydon ko'rsatilgan.

Kutubxonalar maydoni loyiha topshirig'iga binoan binoning sig'imi saqlanadigan adabiyotlarni fondidan va o'quv zalining o'rin joylari hisobidan belgilanadi. Kutubxonalarni planlashtirish yechimlari KMK 2.08.02 talablariga mos kelishi kerak.

Saqlash fondi 25 ming birlikdan kam bo'lgan kutubxonalarga saqlash zonasi va o'quv zali yagona xonalar bo'lishigi ruxsat etiladi. Binolardagi kutubxona uchun mo'ljallangan maydonlar: 100 xodimga 20-24m²; 150-200 xodimga 30-40m²; 300-400 xodimga 50-70m². Ilmiy tekshirish instituti binosida 200-300 xodimga tarkibida 30-45 ming tomlik ilmiy kutubxonasi bo'lgan: kitob ombori, o'quv zali (20-30 o'rinli) avanza abonimenti va o'quv katalogi bilan kitob beruvchi kafedra, yangi adabiyotlar ko'rgazma zonasi, komplektlash xonasi va mudir kabineti mo'ljallangan.

Izoh: Kitob ombori maydoni: 1000 kitobga 2,5m², 1000 jurnalga 2,7m² mo'ljallangan; o'quv zalida bir o'ringa 3-5m², kompyuter o'rnatishga 5-6m² nazarda tutilgan.

Muassasada bir yilda 30 mingdan ortiq hujjat almashinib tursa hisob bo'yicha 12m² kam bo'lmagan ekspedisiya xonasi bo'lishi kerak.

Keluvchilar bilan gaplashish va jamoat tashkilotlari uchun xonalar loyiha topshirig'i bo'yicha qabul qilinadi (xona maydoni 15m² kam emas)

Bir vaqtning o'zida 3-5 keluvchilarni qabul qilish uchun xonalar maydoni 16-18m², 7-10 keluvchilarga 25-30m². Hokimiyatdagi deputatlar kabineti 12-18m² hisobidan qabul qilinadi. 150-200 xodimli binolarda kasaba sayuz va jamoat tashkilotlari xonalarini maydoni 16-18m², 200-300 xodimlarga 24-30m² bo'lishi tavsiya etiladi.

Hokimiyat rahbarlarining kabinetlarida va qabulxonalarida va mahalliy o'z-o'zini boshqarish idoralarida keluvchilarni kutish maydoni bir keluvchiga 1,5-2m² hisobidan, keluvchilar soni 20 kishi va 10m² har-bir keyingi keluvchiga (20dan yuqori) nazarda tutilgan eni 2,4m dan kam bo'lmagan yo'laklarda kutish o'rni joylashtirishga ruxsat etiladi.

Izoh: Keluvchilarni taxminan soni binoning vazifasi, o'xshashligiga qarab aniqlanadi.

Shahar va tuman ZAGS bo'limlariga xodimlarni ishchi xonalari va tantanali ro'yxatga olish xonalari:

Shu bilan birga: 20-24m² mehmonxona-holli, 30-36m² zal kiritilishi lozim.

ZAGSlarni maxsus binolarida-uylar yoki nikoh ahdi saroylarida xonalarni maydoni va tarkibi loyihalashtirish topshirig'iga binoan belgilanadi. Bunday holda nikohlarni tantanali ro'yxatga olish zallari maydoni (yordamchi xona bilan) 40-50m².

Ilova: Ro'yxatga olish xonalarida kutish joyi va sanirar uzellar birgalikda foye (kular) hisobga olinadi.

Xodimlar soni 25 kishilik kichik ma'muriy binolardagi ishchi xonalarni maydonini 12-18m² etib qabul qilish tavsiya etiladi (shu bilan birga rahbar kabineti 16-18m² o'rinbosar kabineti 12m²) 15-20 o'rinli kengash qatnashchiliriga 36m². Xonalar tarkibi loyihalash topshirig'i bo'yicha belgilanadi.

REFERENCES

1. Dek-Khenovna K. N., Batirovna M. M. To the study of the role of pronouns and pronominal words in Korean language (on elementary level teaching material) //Вестник науки и образования. – 2019. – №. 19-1 (73). – С. 47-52.
2. Mukhiddinova M. ABOUT THE PRAGMATICS OF DEACTIVE PRONOUNS IN THE KOREAN LANGUAGE //SPAST Abstracts. – 2023. – Т. 2. – №. 02.
3. Mukhiddinova M. A question about pronouns in a Korean sentence //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 9. – С. 208-211.
4. Mukhiddinova M. PRONOUNS IN COMMUNICATIVE SENTENCES IN KOREAN //ТОШКЕНТ-2021. – Т. 52.
5. Narkulovna, Djurayeva Nargis. "THE ROLE OF INTERACTIVE METHODS IN SCIENCE TEACHING." SCIENCE AND SCIENTIFIC RESEARCH IN THE MODERN WORLD 1.7 (2023): 76-80.
6. Джураева, Н. Н. "БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ТАБИИЙ (SCIENCE) ФАНЛАРДАН КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ВИРТУАЛ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ." ILM FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY METODLARNING QO'LLANILISHI 3.6 (2023): 134-139.
7. Лахтин Ю. М. и др. Влияние предварительного оксидирования на процесс кратковременного азотирования //МиТОМ. – 1993. – Т. 3. – С. 31-33.
8. Бойназаров У. Р., Раззаков Т. Х. Микротвердость диффузионных нитрооксидных слоев //Universum: технические науки. – 2020. – №. 7-1 (76). – С. 44-46.
9. Бойназаров У. Р. Разработка технологии нитрооксидирования с предварительным оксидированием. Дисс. на соиск. учен. степ. к. т. н //Москва. – 1993.
10. Boynazarov U. R. et al. Properties of Oxynitride Steel Coatings Obtained Through Three-Stage Processes of Nitriding Combined with Oxidation //Metallurgist. – 2021. – Т. 65. – №. 7. – С. 886-892.

11. Бойназаров У. Р., Юршев В. И., Петрова Л. Г. Изгибная прочность оксинитридных покрытий // Университетский комплекс как региональный центр образования, науки и культуры. – 2020. – С. 490-495.
12. Бойназаров У. Р., Юршев В. И., Петрова Л. Г. Изгибная прочность оксинитридных покрытий. Университетский комплекс как региональный центр образования, науки и культуры: материалы Всерос. науч.-метод. конф.(с междунар. участием).
13. Бойназаров У. Р., Эргашев Т. И. Исследование формирования нитридоксидных слоев с предварительным оксидированием // UNIVERSUM: технические науки. – 2021. – №. 4-3 (85). – С. 87-92.
14. Бойназаров У. Р., Рахманов А. А. Коррозионная стойкость азотированных покрытий // Качество в производственных и социально-экономических системах. – 2017. – С. 41-45.
15. Бойназаров У. Р., Каримов А. А. Влияние предварительного окисления на процесс азотирования // СОВРЕМЕННЫЕ МАТЕРИАЛЫ, ТЕХНИКА И ТЕХНОЛОГИЯ. – 2013. – С. 90-92.
16. Boynazarov U. Formation of diffusion nitride-oxide coatings // E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 401. – С. 04025.
17. Бойназаров У. Р. и др. КОРРОЗИОННАЯ СТОЙКОСТЬ ОКСИНИТРИДНЫХ ЗАЩИТНЫХ ПОКРЫТИЙ С ПОСЛЕДУЮЩЕМ ОКСИДИРОВАНИЕМ В ПАРАХ ВОДЫ И В РАСТВОРАХ МЕДНОГО КУПОРОСА // Journal of Advances in Engineering Technology. – 2023. – №. 4. – С. 22-26.
18. Бойназаров У. Р. и др. ВЛИЯНИЯ ОКСИДИРОВАНИЯ НА ВОДЯНЫХ ПАРОВ И В РАСТВОРЕ МЕДНОГО КУПОРОСА НА ФОРМИРОВАНИЕ НИТРИДНЫХ ДИФФУЗИОННЫХ ЗАЩИТНЫХ СЛОЕВ // International Journal of Advanced Technology and Natural Sciences. – 2023. – Т. 4. – №. 4. – С. 34-38.
19. Бойназаров У. ВЛИЯНИЕ ТРЕХСТУПЕНЧАТОГО ОКСИАЗОТИРОВАНИЯ НА МИКРОТВЕРДОСТЬ // Innovatsion texnologiyalar. – 2022. – Т. 48. – №. 04. – С. 34-37.
20. Бойназаров У. Р., Ибрагимов Ж., Тураев Ш. ПОКАЗАТЕЛИ ПО КОРРОЗИОННОЙ СТОЙКОСТИ ОКСИАЗОТИРОВАННЫХ ПОКРЫТИЙ // Академические исследования в современной науке. – 2022. – Т. 1. – №. 20. – С. 42-47.
21. Бойназаров У. Р. и др. СВОЙСТВА ОКСИНИТРИДНЫХ ПОКРЫТИЙ НА СТАЛИ, ПОЛУЧЕННЫХ ПРИ ТРЕХСТАДИЙНЫХ ПРОЦЕССАХ АЗОТИРОВАНИЯ С ОКСИДИРОВАНИЕМ // Металлург. – 2021. – №. 8. – С. 64-68.

22. Бойназаров У. Р., Мамадиёров О. Т. КОРРОЗИОННАЯ СТОЙКОСТЬ ОКСИНИТРИДНЫХ СЛОЕВ //Аспирант. – 2021. – №. 4. – С. 37-42.
23. Тургунов З., Раззаков Т., Бойназаров У. Методика определения увода шин и сноса колес в дорожных условиях //Инновацион технологиялар. – 2020. – №. 2 (38). – С. 49-53.
24. Бойназаров У. Р., Бегимкулов Ф. Э. Влияние оксидной пленки на формирование оксинитридной зоны //Наука, техника и образование. – 2016. – №. 7 (25). – С. 46-47.
25. Sulaymanova D. B. Experience in the application of mediatechnologies in teaching informatics in 5thgrade of schools //Middle European Scientific Bulletin, ISSN. – С. 2694-997080.
26. Bakhtiyorovna S. D. Experience in the application of mediatechnologies in teaching informatics in 5thgrade of schools (Middle European Scientific Bulletin, ISSN 2694-997080, VOLUME 12May 2021, 80-83) <https://cejssr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/517/464><https://doi.org/10.47494>.
